

“O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalarida 2025–2026-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari izchil davom etmoqda

// 19.09.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-tarmoq-korxonalarida-2025-2026-yillar-kuz->



Ma'lumki, har yili kuz-qish mavsumida sanoat korxonalarining uzluksiz ishlashini ta'minlash, muhandislik kommunikatsiyalarini tayyor holatga keltirish hamda xodimlar uchun qulay mehnat sharoitini yaratish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan, "O'zbekimiyosanoat" aksiyadorlik jamiyatida 2025-2026-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish ishlari rejali tarzda olib borilmoqda.



Korxonalarda mavjud muhandislik tarmoqlarining samaradorligini oshirish, yo'qotishlarni kamaytirish maqsadida ularni bosqichma-bosqich yangilash ishlari amalga oshirilmoqda. Bu esa faoliyatning uzluksizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, "O'zkiyosanoat" AJning 111-sonli buyrug'i asosida 2025-2026-yillar kuz-qish davridagi ishlarga tayyorgarlikni muvofiqlashtirish bo'yicha "O'zkiyosanoat" AJning markaziy komissiyasi tuzildi. Korxonalar tomonidan esa aniq va maqsadli tadbirlar belgilanib, ularni amalga oshirish ishlari yakuniga yetkazilmoqda.



Xususan, bugunga kungacha tarmoq koxononalarida 258,9 km issiqlik tarmoqlari, 8,14 km suv ta'minoti tarmoqlari, 4,9 km gaz tarmoqlari, 2 046,2 km elektr tarmoqlari, 79 dona transformator podstansiyalarida kapital va joriy ta'mirash ishlari olib borildi.



Shuningdek, 18 dona qozonlar ta'mirlandi, 2 578 km issiqlik tarmoqlari izolyatsiya qilindi.

Kuz-qish mavsumida barqaror faoliyatni ta'minlash maqsadida shu kunga qadar 1,9 ming tonna suyuq yoqilg'i zaxiralari yaratildi. Shuningdek, energiya tejoyvchi texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish yuzasidan ham amaliy choralar ko'rilmoqda.



Ko'rilayotgan mazkur choralarda o'z navbatida mavsum davomida korxonalarning barqaror ishlashini, mahsulot yetkazib berishda uzilishlarga yo'l qo'ymaslik va milliy iqtisodiyot barqarorligiga hissa qo'shishni ta'minlaydi.

"O'zbekimiyosanoat" AJ Matbuot xizmati